

Shahrisabz davlat pedagogika instituti pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Raximov Zokir Toshtemirovichning taqrizi ostida

**KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA PEDAGOGIKA  
KOLLEJLARI O'QUVCHILARINING O'QUV-BILISH FAOLLIGINI OSHIRISH  
MEXANIZMLARI**

*Ashirov Abdirashid Ravshanavich*

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi*

*E-mail: [a-ashirov-75@mail.ru](mailto:a-ashirov-75@mail.ru)*

*Tel: 90-873-75-95*

**Annotatsiya:** Mazkur maqola mazmunida kompetensiya tushunchasining mazmuni, kompetensiyaning eng muhim turlar haqida so'z yuritilgan bo'lib, maqola mavzusining asosiy mazmuni bo'lgan kompetensiyaviy yondashuv asosida pedagogika kollejlari o'quvchilarining o'quv-bilish faolligini oshirish mexanizmlari haqida aniq ilmiy fikrlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** kompetensiya, ijtimoiy kompetensiya, kommunikativ kompetensiya, axborot kompetensiya, kognitiv kompetensiya, maxsus kompetensiya, ta'lim mazmuni, o'quv reja, o'quv dasturi

**Аннотация:** В содержании данной статьи говорится о значении понятия компетентности, важнейших видах компетентности, а также приводятся конкретные научные мнения о механизмах повышения учебной активности студентов педагогических колледжей на основе компетентностного подхода, который представляет собой основное содержание статьи.

**Ключевые слова:** компетентность, социальная компетентность, коммуникативная компетентность, информационная компетентность, когнитивная компетентность, специальная компетентность, содержание образования, учебная программа, учебная программа.

**Annotation:** The content of this article talks about the meaning of the concept of competence, the most important types of competence, and specific scientific opinions are given about the mechanisms of increasing the learning activity of students of pedagogical colleges based on the competence approach, which is the main content of the article.

**Key words:** competence, social competence, communicative competence, information competence, cognitive competence, special competence, educational content, curriculum, curriculum

“Kompetensiya” so‘zi lug‘aviy tarjimada “layoqatli bo‘lmoq”, “munosib bo‘lmoq” kabi ma‘nolarni anglatuvchi lotincha “competere” so‘zi asosida hosil bo‘lgan. “Kompetensiya”-bu shaxsning biror-bir sohadan xabardorligi va shu sohani mukammal bilish darajasi deb tushuniladi. Oxirgi paylarda nashr etilayotgan adabiyotlarning ko‘pchiligida bu tushunchaning ilmiy-nazariy asoslari, mazmun-mohiyati va ta‘limdagi innovatsion jarayonlar tizimida o‘qitish va tarbiyalashda kompetentlikka nisbatan chuqur pedagogik-psixologik tayyorgarlikni shakllantirish masalalariga oid manbalar kiritilmoqda. Bu tushunchaning aniq mazmunini anglash uchun quydagilarni bilish muhimligi alohida qayd etilmoqda.

- Kompetensiya va kompetentlikka doir manbalarni o‘rganish va ulardan olingan xulosalar natejasida kompetentlik haqidagi tasavvurlarni hosil qilish;

- Kompetensiya va kompetentlikka qo'yilayotgan zamonaviy talablar bilan tanishish;

- Ta'lim-tarbiya jarayonini ta'lim oluvchining ruhiyati, uning neyropsixologik, neyropedagogik imkoniyatlarini hisobga olgan holda tashkil etish uchun zarur bo'lgan bilim ko'nikmalarni egallash;

- Pedagogik faoliyatni amalga oshirishda ijodiy va metodik savodxonlikni hamda kompetentlikka nisbatan chuqur pedagogik-psixologik tayyorgarlikni shakllantirish;

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki bugungi kunda kompetensiyalarning turi ko'p ammo ulardan eng muhimlari quydagilar;

Ijtimoiy kompetensiya-yangi yechimlarni ishlab chiqish va ularni amalga oshirish, oqibatlar uchun javobgarlik, ishchilar bilan shaxsiy manfaatlarining mutanosibliigi, madaniyatlararo va millatlararo xususiyatlarga bag'rikenglik, hurmat va hamkorlik jamoada sog'lom muloqot va boshqalar;

Kommunikativ kompetensiya-turli tillarda og'zaki va yozma muloqot, jumladan, turli dasturlash tillari, muloqot qobiliyatlari, muloqot etikasi.

Axborot kompetensiyasi-ijtimoiy ma'lumotlarni tanqidiy aql-idrok prizmasi orqali tahlil qilish va idrok etish, turli vaziyatlarda axborot texnologiyalariga ega bo'lish va foydalanish, inson-kompyuter sxemasini tushunish, bu yerda birinchi bo'g'in ikkinchisiga buyruq beradi va aksincha.

Kognitiv kompetensiya-shaxsiy deb ham ataladi. Ma'naviy o'z-o'zini rivojlantirishga bo'lgan ehtiyoj va bu ehtiyojni amalga oshirish, o'z-o'zini tarbiyalash, takomillashtirish, shaxsiy o'sishdir.

Maxsus kompetensiya-u kasbiy sohada yetarli kompetentsiya uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni, ushbu faoliyatda mustaqillik, o'z harakatlarini adekvat baholashni o'z ichiga oladi.

Asosiy baxs mavzuyimiz bo'lgan kompetensiyaviy yondashuv asosida pedagogika kollejlari o'quvchilarining o'quv-bilish faolligini oshirish uchun biz nomini qayd etib o'tgan barcha kompetensiya turlari zarur. Kompetensiyaviy yondashuv asosida pedagogika kollejlari o'quvchilarining o'quv-bilish faolligini oshirish uchun quydagilarga ahamiyat berishimiz muhim sanaladi.

Ta'lim jarayonining natijasiga o'zlashtirish, ichki va tashqi faoliyatni maqsadga muvofiq ravishda o'zgartirish orqaligina erishish mumkin. Ta'lim va ta'lim jarayoniga berilgan ta'riflar ko'p va xilma-xildir. Ularning birida ta'lim, bir odamning boshqasiga bilim va ko'nikmalar berishdir deb ta'riflanadi. Biz bilgan bilim, ko'nikma va malakalar ta'lim jarayonining natijasidir. Bilimlarni o'zlashtirish jarayoni muammosini ko'plab olimlarimiz o'rgangan va ularning orasida P.Ya.Galperin va N.F. Talizina alohida sanaladi. Ular aqliy xatti-harakatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish nazariyasini ishlab chiqqanlar. Mualliflar aqliy xatti-harakatlarni moddiy holda tashqi nutq yordamida hamda aqliy shaklda, fikrda namoyon bo'lishini izohlab berdilar. Bundan ko'rinib turibdiki, materialni asosan yodlab olish va xotirada saqlab qolishga asoslanadigan

ta'lim hozigi talablarga qisman javob bermoqda. Kollej o'quvchilarga hamisha yangilanib turadigan axborotni mustaqil ravishda o'zlashtirib borishga va o'qishni bitirib ketganidan keyin, kishiga jadal sur'atlar bilan o'sib borayotgan fan-texnika taraqqiyotidan orqada qolib ketmaslik imkoniyatini beradigan qobiliyatlar taraqqiyotini beruvchi tafakkur sifatlarini tarkib toptirish muammosi birinchi o'ringa chiqib bormoqda. Ta'lim jarayonida o'zlashtirishning muvaffaqiyati quyidagilarga bog'liq:

1. Ta'lim mazmuniga
2. O'quv rejalari, dasturlari, dasrliklar va o'quv qo'llanmalarining mavjudligiga;
3. Ta'lim metodikalarini takomillashganligi;
4. O'qituvchi mahoratiga;
5. O'quvchining individual psixologik xususiyatlariga;

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, turli individual tipologik xususiyatlarga ega o'quvchilar uchun ta'limning yagona qulay, optimal sharoitlarini yaratish mumkin emas. Ammo o'zlashtirishning samaradorligini oshirishda muammoli, noan'anaviy ta'lim usullarini qo'llash muhim ahamiyatga egadir. Ta'lim oluvchilarning ta'limiy faoliyatiga ko'ra, ta'limning quyidagicha metodlari ajratiladi:

1. Tushuntiruv-ko'rsatmalilik metodi - bu metod reproduktiv metod bo'lib, unda faoliyat o'qituvchi tomonidan olib boriladi. O'quvchilar ta'lim jarayonida bilim oladilar, tanishadilar. Bu metod juda keng tarqalgan metodlardan biri bo'lib, uni takomillashtirilgan usullari mavjud, bu programmashtirilgan ta'limdir.

2. Reprodukativ metodda o'quvchi faoliyat ko'rsatib, unda o'quvchiga berilayotgan bilimni qayta xotirada tiklab, olingan bilimni nusxa sifatida qabul qiladi.

3. Muammoli ta'lim metodi - o'qituvchi tomonidan tashkil etilib, u produktiv xarakterga egadir. Ushbu metod orqali o'quvchi bilim va malakalarini shakllantiradi. U shbu metodning takomillashtirish yo'llaridan biri ishchan o'yinlarni tashkil etishdan iboratdir.

4. Qisman izlanish metodi-o'qituvchi nazorati ostida tashkil etiladigan metod bo'lib, u produktiv xarakterga ega, bunda o'quvchi ijod qiladi.

5. Tadqiqot metodi-o'qituvchi ilm yordamisiz tashkil etiladigan ta'lim metodi bo'lib, u o'quvchining mustaqil izlanishi, fikrlashi va bilimlar transformasiyasini talab etadi.

Ta'lim jarayoni tashkil etishning o'ziga xos mexanizmlarini tashkil etuvchi unsurlarga ta'lim metodlaridan tashqari pedagogic texnologiyalar ham kiradi. Adabiyotlarda pedagogic texnologiyalarga turli xil mazmundagi ta'riflar beriladi. Berilgan ta'riflarni umumlashtirib uni quyidagicha keltirish mumkin. Pedagogic texnologiya - bu ta'lim jarayoniga sistemali yondashuv bo'lib, unda ta'lim jarayonining tashkil etishda texnika va inson imkoniyatlari hisobga olinadi va ularning o'zaro munosabati ta'limning optimal formalari yaratilishiga zamin bo'ladi. Bu ta'rif mazmunidan kelib chiqqan holda uni quyidagicha klasfikatsiyalash mumkin.

Pedagogic texnologiyalarni quyidagi tarkibiy qismlarga bo'lish mumkin;

- Ta'lim-tarbiya ishtirokchilari shaxsiga qo'yiladigan ijtimoiy talablar;
- Hamkorlik faoliyati a'zolarining kasbiy tayyorgarligi;
- Ta'lim jarayonining maqsadi, mazmuni, mohiyati, amalga oshirish vositalari;
- Ta'lim jarayonini differensiasiyalashtirish;
- Ijodiylik.

Pedagogik faoliyatda pedagoglarning psixologik-pedagogik bilimlari deyilganda, asosan, o'quv jarayonida hamda xizmat faoliyatida o'zining maxsus sohasiga xos bo'lgan psixologik va pedagogik bilimlarni egallashi ko'zda tutiladi. Shu bilan birgalikda pedagog shaxs va jamoa psixologiyasiga oid bilimlarni qay darajada egallaganligi, shuningdek, shaxs psixologiyasini o'rganishning metodlarini mukammal bilishlari zarur. Pedagogika kollejlari o'qituvchilarning o'quvchilar bilan bo'ladigan o'quv-bilish faoliyati pedagogik muloqot asosiga quriladi. Pedagogik muloqotning tarkibini pedagogik aloqa tashkil etadi.

Pedagogik aloqa esa o'z navbatida pedagogning o'quvchilar bilan bevosita aloqa o'rnatishi quyidagi sifatlarda namoyon bo'ladi;

- talabalar fikrini eshita bilish;
- talabalar bilan bo'ladigan muloqot jarayonida o'zida kamtarlik hissini namoyon qilish;
- muloqot jarayonida muomala madaniyatiga qat'iy rioya qilish;
- muloqot jarayoni davomida suhbatdosh shaxsiyatiga tegmaslik;
- talabalarga samimiy tarzda maslahatlar berish.

Shu nuqtai nazardan pedagogik faoliyatda muloqot madaniyati bir maqsadga qaratilgan o'zaro ta'sir qilish xususiyati bo'lib, uning mazmunida o'zaro fikr almashish, kerakli bo'lgan axborotlarni olish va jamlangan axborotlarni yetkazib berish xolati o'z aksini topgan. Pedagoglarning muloqot jarayonida odob-axloq normalariga qat'iy rioya qilishlari, shuningdek ular shaxs psixologiyasini, uning psixologik xususiyatlarini va psixik holatlarini yaxshi bilishlari zarur. Ta'lim sohasidagi kompetensiyaviy yondashuv ko'p jihatdan mutaxassisning pedagogik muloqot texnikasiga bog'liq va u quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- kommunikativ tayyorgarlik;
- pedagogik aloqa o'rnatish;
- pedagogik muloqotni boshqarish.

Pedagogik muloqot madaniyatini bilish va uni faoliyat davomida o'rganish pedagogik aloqa bilan bog'liq holda bo'lib, tarbiyaviy-profilaktik vazifalarni hal qilishda eng qulay va eng optimal variant hisoblanadi. Pedagogik aloqa o'rnatishda esa, pedagog bilan ta'lim olayotgan shaxs o'rtasida o'zaro tushunish, bir-biri bilan ijobiy emosional munosabatda bo'lish xususiyatlarining namoyon bo'lishi hamda o'zaro ishonch munosabatlarining o'rnatilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogika kolleji o'quvchilariga pedagogik aloqa o'rnatishning sir-asrorlari alohida o'rgatilishi muhim chunki ularning kelgusidagi kasbiy faoliyati ko'proq jihatdan pedagogik aloqa asosiga o'rnatiladi. Ularning pedagogik aloqasi quyidagi holatlar uchun juda muhimdir:

- pedagogning na'muna ko'rsatishi;
- pedagogning ta'lim oluvchilarni pedagogik muloqotga jalb qila bilishi;
- auditoriyani qiziqitira olishi;
- tinglovchilarda ijobiy emosional holatni hosil qila bilishi.

Xulosa o'rnida aytish joizki kompetensiyaviy yondashuv asosida pedagogika kollejlari o'quvchilarining o'quv-bilish faolligini oshirish uchun yuqorida keltirilgan mexanizmlarning

barchasi muhim va ular bo'lajak soha mutaxassislarining o'z kasbiy faoliyatlarini samarali tashkil etishida muhim hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. M. M. Axmetjanov, U. A. Urinov, Sh. S. Sharipova “Kasbiy ta’lim metodikasi” darslik Buxoro “Durdoni” 2020-yil 496 bet.
2. G. O. Ochilova «Kasbiy kompetentlik» o’quv qo’llanma T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi» 2021-yil 228 bet
3. M. M. Axmetjanov, U. A. Urinov, Sh. S. Sharipova “Kasbiy ta’lim metodikasi” darslik Buxoro “Durdoni” 2020-yil 496 bet.
4. I. M. Sirojiddinova “Kasbiy ta’lim metodikasi” o’quv qo’llanma Andijon “Noshirlik” 2021-yil 220 bet.
5. M. T. Axmedova “Pedagogik kompetentlik” uslubiy qo’llanma -T.: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti 2018-yil 80 bet.
6. D. Elmuratova, N. Misirova “Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari” o’quv qo’llanma “Guliston” 2021-yil 161 bet.
7. M. H. Muslimov, N. A. Usmonboyev, D. M. Sayfurov, A. B. To’rayev “Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari” T.: 2015-yil 120 bet.